

«TASDIQLAYMAN»

«Dehqonobod kaliy zavodi» AJ
boshqaruv raisining
pudratchi o'rinbosari v.v.b



T.Zaripov

2022 y.

"Dehqonobod kaliy zavodi" AJ ob'ektlari uchun yong'in xavfsizligi pasporti ishlab chiqish xizmatlarini ko'rsatuvchi vakolatli tashkilotni tanlash bo'yicha texnik shart

1. Qo'llanilish sohasi.

"Dehqonobod kaliy zavodi" AJ qayta ishlash majmuasi va tog'-kon majmuasi ob'ektlari uchun yong'in xavfsizligi pasporti ishlab chiqish xizmatlarini ko'rsatish.

2. Ko'rsatilayotgan xizmatning qisqacha xususiyatlari.

"Dehqonobod kaliy zavodi" AJ qayta ishlash majmuasi va tog'-kon majmuasi ob'ektlari uchun yong'in xavfsizligi pasporti ishlab chiqish ishlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq amalga oshiriladi. Xizmat ko'rsatuvchi korxonaga "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ qayta ishlash majmuasi va tog'-kon majmuasi ob'ektlari uchun yong'in xavfsizligi pasporti ishlab chiqishda buyurtmachining ob'ektlarini to'liq o'rganib chiqadi va hujjatlarni tayyorlash ishlarini amalga oshiradi. "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ qayta ishlash majmuasi va tog'-kon majmuasi ob'ektlari uchun yong'in xavfsizligi pasporti ishlab chiqish xizmatlarini ko'rsatish muddati shartnomada ko'rsatiladi.

3. Ishlar va xizmatlarning sifat ko'rsatkichlariga qo'yiladigan talablar.

"Dehqonobod kaliy zavodi" AJ qayta ishlash majmuasi va tog'-kon majmuasi ob'ektlari uchun yong'in xavfsizligi pasporti ishlab chiqish O'zbekiston Respublikasi "Yong'in xavfsizligi to'g'risida"gi qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-oktabrdagi "Yong'in xavfsizligi qoidalari to'g'risida"gi 649-son qarori talablariga muvofiq bo'lishi kerak. "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ qayta ishlash majmuasi va tog'-kon majmuasi ob'ektlari uchun yong'in xavfsizligi pasportlari ishlab chiqish xizmatlari barcha xavfsizlik va ishonchlilik talablariga javob berishi shart. Pudratchi ko'rsatiladigan xizmatlarning xavfsizligi sifati va ishonchliligi uchun javobgardir. Pudratchi o'z mablag'lari hisobidan qabul paytida aniqlangan kamchiliklarini bartaraf etishga va buyurtmachi talablariga mos holatda topshirishga majburdir. Ko'rsatilgan xizmatlar komissiya ishtirokida ko'rib chiqilib dalolatnoma asosida qabul qilinadi.

4. Ko'rsatiladigan xizmatlar narxiga quyidagilar kiradi:

Barcha soliqlar, yig'imlar, transport xarajatlari, xodimlarning turarjoy va ovqatlanish xarajatlari, ishlatiladigan moslama, uskuna xarajatlari, foydalaniladigan shaxsiy himoya vositalari xarajatlari va boshqa to'lovlar uchun xarajatlar pudratchi tashkilot hisobidan amalga oshiriladi.

5. Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotga qo'yiladigan talablar.

"Dehqonobod kaliy zavodi" AJ qayta ishlash majmuasi va tog'-kon majmuasi ob'ektlari uchun yong'in xavfsizligi pasporti ishlab chiqish uchun ruxsatnomaga va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan barcha uskuna va vositalarga ega bo'lishi hamda ishlarni bajaruvchi

xodimlari maxsus o'qitilganlik to'g'risidagi guvohnomaga ega bo'lishi va shu guvohnoma asosida imtihon muddatlari bo'lishi talab qilinadi.

6. Xizmat ko'rsatish joyi, miqdori va hajmi:

"Dehqonobod kaliy zavodi" AJ qayta ishlash majmuasi va tog'-kon majmuasidagi bino, inshoot va texnologik qurilmalar;

7. Xizmatni ko'rsatish bo'yicha hisob-kitob tartibi.

"Dehqonobod kaliy zavodi" AJ qayta ishlash majmuasi va tog'-kon majmuasi ob'ektlari uchun yong'in xavfsizligi pasportlari qabul qilinganligi to'g'risidagi dalolatnoma komissiya a'zolari tomonidan imzolanganidan keyin shartnomada ko'rsatilgan summa pudratchi hisob raqamiga o'tkazib beriladi.

7. Xizmat ko'rsatish muddati: Buyurtmachi va pudratchi o'rtasida tuzilgan shartnomada ko'rsatiladi va xizmat ko'rsatishni boshlash shartnoma kuchga kirgan kundan 10 kalendar kunidan oshmasdan boshlanishi va 30 kalendar kunidan oshmagan muddatda tegishli tartibda tasdiqlangan yong'in xavfsizligi pasportlarini buyurtmachiga taqdim qilishi kerak;

Xizmat ko'rsatish manzili (adres): "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ (O'zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati, Dehqonobod tumani, Beshbuloq MFY);

Ishlab chiqdi:

MM va SX bo'limi IChNX boshlig'i



B. Abraxmatov

Kelishildi:

MM va SX bo'limi boshlig'i



M. Hasanov

"DKZ" AJ OBYOXTTEB boshlig'i mayor



S. Nurdavlyatov